**Makkajo'xori** - boshokdoshlar oilasiga mansub bir yillik o'tsimon o'simliklar turi, don va yem-xashak ekini. Yer sharidagi yavvoyi holda o'smaydigan eng qand ekinlardan biri. Vatani—Markaziy va Jan. Amerika. Dastlab Meksika hududida mayya va atstek qabilalari tomonidan mil.dan 5200 yil avval dehqonchilikda ekilgan. ekin maydonlari bo'yicha dunyoda bug'doy ekinidan keyingi ikkinchi o'rinda va yalpi hosili bo'yicha bug'doydan yuqori o'rinda turadi. Yer yuzidagi ko'pgina mamlakatlarda makkajo'xori eng qadimgi oziq-ovqat ekinlaridan biri hisoblanadi. Makkajo'xori Xitoy, Hindiston, Yaponiya,

Pokiston, Indoneziya, Vietnam va ayniqsa, tropik iqlimli mamlakatlarda yashovchi aholining asosiy oziq-ovqat mahsulotidir. Jahon dehqonchiligidagi Makkajo'hori ekilgan maydon 139,2 mln<sup>2</sup>, hosildorlik (don bo'yicha) 43,13 s/ga, yalpi hosil 600,4 mln. t (28,5 mln.ga, hosildorlik 84 s/ga), Braziliya (11,6 mln.ga, hosildorlik 27,6 s/ga), Meksika (7,2 mln.ga; hosildorlik 25,3 s/ga), Xitoy (25,8 mln.ga; hosildorlik 48,8 s/ga), shuningdek, Jan. va Jan.-Sharqiy Yevropa, Jan.-Sharqiy Osiyo, Jan. va Sharqiy Afrika mamlakatlarida katta maydonlarga ekiladi (1999). Makkajo'xori to'yimliligi, tez hazm bo'lishi bilan ajralib turadi. Makkajo'xori tarkibida 75,2% (asosan kraxmal), 7,7 % oqsil, 0,4 % yog', 2,2% kleychatka, 0,5 % qand moddalari va 14 % suv bor. O'zbekistonda ham bu ekin qadimdan ekiladi (42 ming ga; hosildorlk 31,6 s/ga; yalpi hosil 131,4 t). Poyasi tik, 2 – 3 m gacha, bo'g'imli, ichi g'ovak. Ildizi pataksimon, yerga 1—1,5 m gacha kirib boradi. Poyaning eng ostki bo'g'imidan yo'g'on tayanch ildizlar chiqaradi, ular o'simlikni yotib qolishidan saqdaydi va chopiq vaqtida yumshoq tuproq uyumi ularni nam hamda oziq moddalar bilan ta'minlaydi. Barglari keng nashtarsimon, ketma-ket joylashgan, usti tukli. Makkajo'hori bir uyli, to'pguli ayrim jinsli o'simlik, chan-gchi to'pguli poya uchida ro'vak, urug'chi to'pguli so'tada popuksimon bo'ladi. Mevasi don. 1000 ta doni vazni 100—400 g So'tasi donli zo'g'ata, 500 dan 1000 gacha doni bo'ladi va uni o'rab turgan barg (g'ilof)lardan iborat, har tup o'simlik 1—2 — 3 ta, ba'zan undan ko'proq so'ta chiqaradi.

Doni yirik, yumaloq, tuxumsimon yoki tishsimon, rangi va morfologik belgilariga ko'ra, tishsimon, yarim tishsimon, mumsimon va qobiqli guruhlarga bo'linadi. Donining tarkibida 9—10% oqsil, 4—6% moy, 65—70% uglevod, V., V2, V6, Ye vitaminlari, doni sarg'ish navlarida provitamin A, nikotin va pantaten kislotalar, flavonoidlar va boshqa mavjud. M. juda mahsuldor va turli maqsadlarda ishlatiladigan ekin. M. doni oziq-ovqat (un, yorma, bodroq, shirin qalamchalar, makkajo'xori moyi va boshqalar), kraxmal-patoka, pivo, spirt sanoatlarida ishlatiladi. Aralash yem ishlab chiqarish uchun xom ashyo, doni chorva mollari uchun to'yimli ozuqa (1 kg donining to'yimliligi 1,34 ozuqa birligiga teng), ko'k massasi (1 kg ida 13,6—14,6 g hazm bo'lувчи protein va 0,18—0,39 ozuqa birligi

bor), silosi va doni bilan birga maydalab konservalangan so'tasi qimmatli ozuqa. M. poyasi, zo'g'atasi, qobiq bargidan qog'oz, linoleum, viskoza, izolyasiya materiallari, sun'iy po'kak, kinoplyonka va boshqa ishlab chiqariladi. M. popugi tibbiyotda ishlatiladi.

Navi va tuproq-iqlim sharoitiga qarab o'suv davri 90 - 150 kun. M. issiqsevar, yorug'sevar, qurg'oqchilikka ancha chidamli bahori ekin, tuproq harorati  $10^{\circ}$  C bo'lganda 10-12 kunda unib chiqadi. Maysalari  $-2$  - $3^{\circ}$  C sovuqqa chidaydi. Kuzda  $-3^{\circ}$  C da sovuq uradi, ozuqalik sifatini pasaytiradi.  $20$ - $25^{\circ}$  C danormal o'sib rivojlanadi. Harorat  $35^{\circ}$  C dan yuqori bo'lganda gullari yaxshi changlanmasligi mumkin (yuqori harorat va havoning quruqligi urug'chi to'pgullar ipakchalarini quritib qo'yadi). M.ni asosiy ekin tarzida ekish uchun begona o'tlardan toza, sho'rланmagan va sizot suvlari chuqur, o'tmishdosh ekinlardan kuzgi don ekini, dukkakli don, burdoy ekilgan yer tanlanadi. Yer kuzda 28—30 sm chuqurlikda shudgorlanadi, gektariga 10-35 t go'ng va 60–80 kg sof fosfor hisobidan o'g'it solinadi. Erta bahorda boronalanadi yoki yoppasiga kultivatsiya qilinadi. Urug'lar qator oralari 60, 70, va 90 sm qilib M. se-yalkalarida kvadratuyalab yoki qatorlab 6—10 sm chuqurlikda ekiladi. O'suv davrida 2 marta — birinchisida gektariga 70–80 kg azot, 60–80 kg fosfor, ikkinchisida 80–100 kg azot, 50–60 kg fosfor, 40–50 kg kaliy hisobidan oziqlantiriladi, 2—3 marta kultivatsiya qilinadi, 4—6 marta sugariladi. M. ko'kat yem uchun ro'vak chiqarguncha, silos uchun doni dumbul bo'lib yetilganda va doni uchun to'la yetilganda yig'ishtiriladi. O'zbekiston sharoitlarida ilg'or xo'jaliklarda don bo'yicha hosildorlik 50—60 s/ga, ko'k massa bo'yicha 300—600 s/ga ga boradi. M.ni ang'iz ekin sifatida (yezda bug'doydan bo'shagan maydonlarga) ham ekiladi. O'zbekistonda Vatan, Qorasuv 350 AMV, O'zbekiston tishsimon M.si, O'zbekiston 306 AMV, O'zbekiston 601 YESV, Moldaviya 425 MB, Figaro, Nort va boshqa navlar hamda duragaylari ekiladi



#### **4—rasm.makkajo’hori**

**Guruch** — sholini oqlab olinadigan asosiy don; oziq-ovqat mahsulotlaridan biri. Sholi oqlanganda silliq, yirik G. bilan birga oqshoq ham tushadi. G. ning qaysi navli sholidan olinishiga qarab turlari ko’p. Mas, devzira, jaydari, avangard, alanga, gulzor, kizil G. va b. Tarkibida o’rtacha 14% suv, 75,2% uglevod (asosan kraxmal), 7,7% oqsil, 0,4% yog’, 2,2% kletchatka va 0,5% kul bo’ladi. Vatani Osiyo bo’lib, shu qit’ada yashovchi xalqlarning pazandachiligidagi asosiy masallik, hisoblanadi. G.dan to’yimli, tez hazm bo’ladigan taomlar tayyorlanadi.



#### **5—rasm. Guruch**

Odamlar guruchni 9400 yil muqaddam eka boshlagan. Buni Xitoy janubidagi Chjetszyan provinsiyasida o’tkazilgan qazilma ishlari ko’rsatdi, deb xabar beradi.

Qadimiylar manzilgohdan inson tomonidan undirilgan eng qadimiylar guruch qoldiqlari topildi. Topilma haqida axborot Proceedings of the National Academy of Sciences jurnalida chop etildi. Ilgari arxeologlar ushbu hududdan turli qadimiylar artefaktlar topgan edi. Endi u yerdan sholi boshoqlari hamda ko’p miqdorda fitolitlar aniqlandi. Fitolitlar — kremniy zarralari bo’lib, ulardan ayrim o’simliklar

o‘zini himoya qilish maqsadida foydalanadi. Deyarli barcha fitolitlar bukilgan bo‘lib, bu aynan xonakilashtirilgan guruchga xos xususiyatdir. Guruchning yoshi fitolitlar tahlili hamda boshqa topilmalarga qiyoslash natijasida aniqlandi.

Hozircha bu guruch ekila boshlagani haqidagi eng qadimiy guvohlikdir.

**KRAXMÁL** ( $C_6H_{10}O_5$ )<sub>n</sub> - amiloza va amilopektin polisaxaridlari, ularning monomeri alfa-**glukoza**. Turli o’simliklarning xloroplastlarida yorug’lik ta’sirida fotosintez jarayonida sintez qilinadigan kraxmal donalar strukturasi, molekulaning polimerlanish darajasi, polimer zanjirlar tuzilishi va fizik-kimyoviy xossalari bo‘yicha ancha farq qiladi.

Fizik va kimyoviy xossalari

Ta’msiz, oq rangli amorf kukun, sovuq suvda erimaydi. Mikroskop ostida bu donador kukun ekanini ko`rish mumkin; kraxmal kukunini qo`lda siqqanda zarrachalar ishqalanishi natijasida o‘ziga xos tovush chiqaradi.

Qaynoq suvda bo`kadi (eriydi), bunda kolloid eritma – kleyster hosil bo`ladi; yod bilan hosil qilgan birikmasi ko`k rangda. Katalizator sifatida suvga kislotalar (suyultirilgan sulfat kislota va b.) qo`shilganda gidrolizlanib eriydi, bunda uning molekular massasi asta sekin pasayadi, va natijada “eruvchan kraxmal”, dekstrinlar va glukoza hosil bo`ladi.

Kraxmal molekulalari o`lchami bo`yicha bir tekis emas. Kraxmal chiziqli va tarmoqlangan molekulalar aralashmasi shaklida bo`ladi.



Fermentlar ta’sirida yoki kislotalar bilan qizdirganda gidrolizga uchraydi. Tenglamasi:  $(C_6H_{10}O_5)_n + nH_2O \rightarrow H_2SO_4 \rightarrow nC_6H_{12}O_6$ .

Sifat reaksiyalari:

- Kraxmal, glukozadan farqli ravishda kumush ko`zgu reaksiyasiga kirishmaydi;
- Saxaroza kabi mis (II) gidroksid bilan qaytarilmaydi;
- Yod bilan ta’sirlashadi (ko`k rangga kirishi).

Biosintez

Yashil o’simliklarda hosil bo`ladigan fotosintez jarayoyonida hosil bo`ladigan glukozaning bir qismi kraxmalga aylanadi:



Kraxmal zahira ozuqa modda sifatida o'simliklarning tugenagida, mevasida, urug'larida to'planadi. Masalan, kraxmal olishda ko'p ishlatiladigan o'simliklarda: kartoshka tugenagida 24% gacha, bug'doy donida 64% gacha, sholida 75%, makkajo'xorida 70% kraxmal bo'ladi.

### Kraxmal modifikatsiyasi

Sanoatda kraxmalni glukozaga (shakarlanish jarayoni) o'tkazilishi bir necha soat davomida suyultirilgan sulfat kislota eritmasida qaynatib amalga oshiriladi (sulfat kislotani kraxmalni shakarlanish jarayoniga katalitik ta'siri **1811 y. K. S. Kirxgofom** tomonidan aniqlangan) [2]. Olingan eritmada sulfat kislotani chiqarish uchun eritmaga bo'r qo'shib, sulfat kislotadan erimaydigan kaltsiy sulfat olinadi. U filtrlanadi, va modda bug'latiladi. Olinadigan quyuq shirin massa – kraxmal patokasi, glukozadan tashqari kraxmal gidrolizining ko'pgina moddalarini tutadi.

Donli o'simliklar urug'lari kraxmalga boy: sholi (86 %), bug'doy (75 %), makkajo'xori (72 %), shuningdek kartoshka tugenaklari (24 %).

Odam organizmi uchun kraxmal saxarozi bilan bir qatorda oziqning asosiy komponenti bo'lgan uglevodlarni etkazib beruvchi vazifasini bajaradi. Fermentlar ta'sirida kraxmal glukozagacha gidrolizlanadi, u hujayralarda karbonat angidrid va suvgacha oksidlanadi hamda tirik organizm faoliyati uchun talab qilingan energiyani ajratadi. Kraxmalni suvdagi eritmasi nonyuton suyuqligi hisoblanadi.

**Patoka.** Patoka suyuq asalga o'xshash konsistentsiyali, tiniq, begona hidlarsiz va ta'mlarsiz bo'lishi kerak.

Patokada quruq moddaning miqdori 78% dan kam bo'lmasligi, qaytaruvchanlik xususiyatiga ega bo'lgan qand moddalari miqdori esa patokaning tipiga qarab 30% dan 50% gacha bo'ladi. Patokalarda nordonlik ham muhim ko'rsatkich hisoblanadi. Me'yoriy xujjatlar talabi bo'yicha patokaning nordonligi quruq moddaga hisoblanganda 12-27 ml 0,1 N NAOH ni, pH ko'rsatkichlari esa

4,6 dan kam bo'lmasligi kerak. SHuningdek, patokalar tarkibida begona aralashmalar va erkin mineral kislotalar bo'lishiga yo'l qo'yilmaydi.

### **3.4. Texnologik hisob-kitob. Material va issiqlik balansi**

Patokaning 12% li eritmasini 62 kg/soat sarfda konsentratsiyalash uchun uch korpusli tabiiy sirkulyasiya kurilmasi hisoblab chiqilsin . Eritmaning oxirgi konsenratsiyasi 40% (mass.). Bug'latish qurilmasida qaynash temperaturasi isitilgan eritma bug'latish uchun uzatiladi. To'yingan isituvchi suv bug'ining absolyut bosimi 4 kg·k/sm<sup>2</sup>. Isituvchi trubalar uzunligi 4 m. Barometrik kondensatordagi vakuum 0,8 kg·k/sm<sup>2</sup> ga tengdir.

Ye ch i sh :

- 1) Uchala qurilmalarda bug'lanayotgan erituvchining umumiyligi mikdori:

$$W = G \cdot \left(1 - \frac{X_b}{X_o}\right) = 62 \cdot \left(1 - \frac{12}{40}\right) = 43,4 \text{ kg/s}$$

- 2) Har bir korpusga yuklamani taqsimlash.

$$W_1, W_2, W_3 = 1,0 \ 1,1 \ 1,2$$

Nazariy taxdil va sanoatdagi ko'p yillik natijalar asosida, qar bir korpusdagi ikkilamchi bug'ning mikdorini aniklaymiz.

$$W_1, W_2, W_3 = 1,0 \ 1,1 \ 1,2$$

Har bir korpusda xosil bo'lgan ikkilamchi bug mikdorini topamiz:

1 - korpusda

$$W = \frac{43,4 \cdot 1}{3600 \cdot (1+1,1+1,2)} = 0,0036$$

2 - korpusda

$$W_2 = \frac{43,4 \cdot 1,1}{3600 \cdot (1+1,1+1,2)} = 0,0041$$

3 - korpusda

$$W_3 = \frac{43,4 \cdot 1,2}{3600 \cdot (1+1,1+1,2)} = 0,0043$$

- 3) Korpuslar buyicha eritmaning konsentratsiyasini hisoblash eritmaning boshlanshch konsentratsiyasi  $X_{bosh}$

Birinchi korpusdan ikkinchisiga kirayotgan eritmaning mikdori:

$$G_1 = G_{\text{bosh}} - W_1 = \frac{62}{3600} - 0,0036 \text{ kg/s}$$

konsentratsiyasi esa,

$$X_1 = \frac{0,0172 \cdot 12}{0,0172 - 0,0036} = 15,1\%$$

Ikkinci korpusdan uchinchisiga kirayotgan eritma mikdori:

$$G_1 = G_{\text{bosh}} - W_1 - W_2 = 0,0172 - 0,0036 - 0,004 = 0,0095 \text{ kg/s}$$

konsentratsiyasi esa,

$$X_2 = \frac{0,0172 \cdot 12}{0,0095} = 21,7\%$$

4) Korpuslar buyicha isituvchi bug‘ bosimining taqsimlanishi.

Birinchi korpus va barometrik kondensatorlardagi isituvchi bug‘ bosimlarining farqi

$$\Delta p = 4 - 0,2 = 3,8 \text{ kg}\cdot\text{k/sm}^2$$

Dastlab, ushbu bosimlar farqini korpuslar o‘rtasida barobar taqsimlaymiz, ya’ni

$$\Delta p = \frac{3,8}{3} = 1,27 \text{ kg}\cdot\text{k/sm}^2$$

Bunda, korpuslardagi absolyut bosim kuyidagicha buladi:

3-korpusda  $R_z = 0,2 \text{ kg}\cdot\text{k/sm}^2$  (berilgan)

2-korpusda  $R_z = 0,2 + 1,27 = 1,47 \text{ kg}\cdot\text{k/sm}^2$

1-korpusda  $r = 1,47 + 1,27 = 2,74 \text{ kg}\cdot\text{k/sm}^2$

Isituvchi bug‘ bosimi:

$$r = 2,74 + 1,27 = 4 \text{ kg}\cdot\text{k/sm}^2$$

7. Korpuslarda qaynash temperaturalarini aniklaymiz

3-korpusda  $t_3 = 59,7 + 1 + 7 + 14,69 = 82,4^\circ\text{C}$

2-korpusda  $t_2 = 110,1 + 1 + 3 + 2,2 = 116,3^\circ\text{C}$

1-korpusda  $t_1 = 129,4 + 1 + 2 + 1,2 = 133,6^\circ\text{C}$

8. Har bir korpus uchun issiklik o‘tkazish koeffitsientini

aniklaymiz. Kurilmadagi eritmalarining qaynash temperaturasi va konsentratsiyasiga qarab maxsus adabiyotlardan eritmaning fizik xossalari (zichlik, qovushoqlik, issiklik o'tkazuvchanlik, issiklik sig'imi va shu kabilar) aniklanadi. Isitish trubalarining turiga qarab qabul qshshnadi. So'ngra, kondensatsiyalanayotgan bug' va kaynayotgan eritma uchun tegishli kriterial tenglamalar yordamida issiklik berish koeffitsientlaridan issiklik o'tkazish koeffitsienti topiladi.

Xisoblash paytida trubalarda kaynash natijasida hoskl bo'lgan qoplama qalinligini ( $5 = 0,5$  mm) inobatga olish kerak.

1 korpus uchun  $K_1 = 1700 \text{ Vt}/(\text{m}^2\text{-K})$

2 korpus uchun  $K_2 = 990 \text{ Vt}/(\text{m}^2\text{-K})$

3 korpus uchun  $K_3 = 580 \text{ Vt}/(\text{m}^2\text{-K})$

Patoka ishlab chiqarish jarayonining material balons xisobi.

Boshlang'ich ma'lumotlar.

Ishlab chiqarish unumdorligi 250 t/yil. Texnologik ketma ketlikda yo'qotilish norma va nuksonlari.

- 1) Makkajo'xori maydalashda -0,5%
- 2) Gidrolizlash jarayonida -0.5%
- 3) Bug'latish jarayonida -3%
- 4) Filtrlash jarayonida-4%
- 5) Qodaqlash jarayonida -0,1%

#### Xisobashlar

1) Makkajo'xori maydalashda

$$250000 \cdot \frac{100}{100 - 0,5} = 251256 \text{ kg/yil}$$

Makkajo'xori maydalashda yo'qotilishi

$$251256 - 250000 = 1256 \text{ kg/yil}$$

2) Gidrolizlash jarayonida yo'qotilishlar

$$250000 \cdot \frac{100}{100-0,5} = 251256 \text{ kg/yil}$$

$$251256 - 250000 = 1256 \text{ kg/yil}$$

3) Bug'latish jarayonida

$$250000 \cdot \frac{100}{100-3} = 257730 \text{ kg/yil}$$

$$257730 - 250000 = 7730 \text{ kg/yil}$$

4) Filtrlash jarayonida yo'qatish

$$250000 \cdot \frac{100}{100-4} = 260416 \text{ kg/yil}$$

$$260416 - 250000 = 10416 \text{ kg/yil}$$

5) Qodaqlash jarayonida

$$250000 \cdot \frac{100}{100-0,1} = 250250 \text{ kg/yil}$$

$$250250 - 250000 = 250 \text{ kg/yil}$$

$$Y_{umumi} = 1256 + 1256 + 7730 + 10416 + 250 = 20636$$

Kirim		Chiqim	
Makkajoxori kraxmali	270000 kg	Patoka Makkajo'xori maydalashda Gidrolizlash jarayonida Bug'latish jarayonida Filtrlash jarayonida Qodaqlash jarayonida	250000 kg/y 1256 1256 7730 10416 250
	270000		270636

## **Korpuslar buyicha issiklik balanslarini tuzamiz.**

Tahminiy hisoblarni soddalashtirish maqsadida issiklik balanslarini issiklik yo‘qotilishini hisobga olmagan holda tuzamiz va bir korpusdan ikkinchisiga eritma urtacha qaynash temperaturasida o‘tadi deb qabul qilamiz. Shartga binoan 1 korpusga bug‘latish uchun eritmani qaynash temperaturasigacha qizdirilgan holda uzatiladi.

1. korpusda issiklik sarfinining mikdori;

$$Q_1 = W_1 \cdot r_1 = 0,0036 \cdot 2179 \cdot 10^3 = 7844 \text{ vt}$$

2. korpusga eritma o‘ta qizdirilgan holda beriladi va unda issiqlik sarfining mikdori:

$$Q_2 = W_2 \cdot r_2 - G_1 \cdot c_1 \cdot (t_1 - t_2) = 0,0041 \cdot 2357 \cdot 10^3 - 0,0136 \cdot 4190 \cdot 0,848 \cdot (133,6 - 116,3) = 8828 \text{ vt}$$

1- korpusdan chiqayotgan ikkilamchi bug‘ beradigan issiklik mikdori  
 $W_1 \cdot r_1 = 7844 \text{ Vt}$ . Issiklik kirishi va sarf bo‘lishining farqi 1%.

3. korpusdagi issiklik mikdorining sarfi

$$Q_3 = W_3 \cdot r_3 - G_3 \cdot c_3 \cdot (t_2 - t_3) = 0,0043 \cdot 2357 \cdot 10^3 - 0,0095 \cdot 4190 \cdot 0,784 \cdot (116,3 - 82,7) = 8828 \text{ vt}$$


10. 1 korpusda isituvchi bug‘ sarfi

$$G = \frac{7844}{2141 \cdot 10^3} = 0,0036 \text{ kg/s}$$

Bug‘ning solishtirma sarfi:

$$d = \frac{G}{W} = \frac{0,0036}{0,012} = 0,3$$

## Uch korpusli bug'latish qurilmasi



### 3.5. Tayyor mahsulotning analitik nazorati

#### Kraxmal va kraxmal mahsulotlarining sifatni analitik nazorati

Kraxmal ishlab chiqarish uchun kartoshkaning tarkibida kraxmalning miqdori 14 % dan kam bo'lмаган texnik navlari ishlatiladi. Gurunch kaxmali olish uchun esa Gurunchning oqdonli navlaridan foydalaniladi.

#### Kraxmalning sifat ko`rsatkichlari

Makkajo'xori kraxmalining sifati 7694-78 nomerli, Gurunch kraxmalining sifati esa 7697-82 nomerli davlat standarti talablariga javob berishi kerak. Organoleptik ko`rsatkichlari, tozaligi va kimyoviy tarkibi bo'yicha Makkajo'xori kraxmali ekstra, a'lo navlarga, Gurunch kraxmali a'lo va 1-navga, bug'doy kraxmali esa ekstra, a'lo va 1-navlarga bo'linadi.

Kraxmalning organoleptik ko`rsatkichlari bo'yicha uning tashqi ko'rinishi, rangi, hidi va ta'mi aniqlanadi. Kraxmal tashqi ko'rinishi bo'yicha qo'l bilan ishqalay olish mumkin bo'lgan kukun holida bo'ladi. Kraxmalning rangi uning tozaligiga, turiga hamda naviqa bog'liq. Makkajo'xori kraxmali sariq tusli oq rangda bo'ladi. Ekstra va a'lo nav makkajo'xori kraxmali yaltirab (kristalicheskiy

blesk) turishi kerak. Agar kraxmalda begona aralashmalar bo'lsa, uning rangi kulrangroq bo'ladi.

Kraxmalning o'ziga xos hidi bo'lib, unda begona va shuningdek, ko'lansa, po'panak, baliq hidlari bo'lmasligi kerak. Ta'mi bo'yicha kraxmal ozroq shirinroqdir. Kraxmalda boshqa ta'mlar ham bo'lmasligi kerak.

Standart talabi bo'yicha fizik-kimyoviy ko'rsatkichlar orqali kraxmalning namligi, nordonligi, umumiy kulining va 10% li xlorid kislotasida erimaydigan kulining miqdori, begona mayda zarrachalarning soni aniqlanadi. Bug'doy va Gurunch kraxmali uchun esa oqsil moddasining (protein) miqdori ham asosiy ko'rsatkichlardan biri hisoblanadi.

Makkajo'xori,gurunch, bug'doy kraxmallari namligi esa 13% dan ,kartoshka kraxmalinig namligi 20% dan, oshmasligi kerak.Kraxmalning nordonligi uning asosiy ko'rsatkichlaridan biri hisoblanadi. Nordonligiga qarab kraxmalning qanchalik tozalanganligi, qancha saqlanganligi, yangi yoki eskiligini bilish mumkin. Kraxmalning nordonligi deganda 100 g mutloq quruq kraxmalni neytrallashga sarflanadigan 0,1 normalli ishqor eritmasining miqdori tushuniladi.

Naviga qarab nordonlik me'yorlari: Makkajo'xori kraxmali uchun -20, gurunch kraxmali uchun esa 15 dan 18, kartoshka kraxmali uchun 7,5 dan 15 millilitrgacha belgilanadi.Ekstra nav makkajo'hori kraxmalining 1 dm<sup>2</sup> yuzasida 60 tagacha, a'lo navida 200 tagacha, 1-navida 700 tagacha mayda zarrachalar bo'lishi chegaralanadi. Gurunch kraxmalining a'lo navida bu ko'rsatkich 300 tagacha, 1 navida esa 500 tagacha belgilanadi. Bundan ko'rindiki, kraxmalda mayda zarrachalar soni qancha ko'p bo'lsa, uning navi shuncha past bo'ladi. Mayda zarrachalar sonining standartda ko'rsatilganidan ortiq bo'lishi, kraxmal ishlab chiqarish bosqichida uning ifloslanib qolganligidan va yaxshi yuvilmaganligidan dalolat beradi.Standartda ko'rsatilishicha, Makkajo'xori kraxmali uchun 0,2 dan 0,3% gacha, kartoshka kraxmali uchun esa 0,35 dan 0,5% gacha kul bo'lismiga yo'l qo'yiladi. Xlorid kislotasining 10% li eritmasida erimaydigan kulning miqdori esa 0,03 dan 0,1% gacha ruxsat etiladi.Ovqat uchun ishlatiladigan kraxmal tarkibida

og'ir metallarning tuzi bo'lishiga yo'l qo'yilmaydi. Bundan tashqari kraxmalmi chaynaganimizda g'ijirlamasligi ham kerak.

### **Kraxmal potokasini tarkibi va sifati**

Kraxmal potokasini sifati albatta davlat andozasi talablariga GOST 5194–91 potoka tarkibi va gidroliz bosqichi quyidagi tuzilishda

### **KRAMAL POTOKA SHIRASI MIQDORI (MASS. %)**

Qandliligi	Ta'sir qiluvchi moddalarning tarkibi, CB massasining%			
	30	40	50	60
Glukoza	8	21	30	38
Maltoza	7	22	25	26
Oligosaxarid	85	57	45	36

Potoka tarkibida RV 30–37 % dekstrinlar cho'kma holatida bo'ladi, u oq rangda bo'lib, yaltiroq ko'rinishda bo'ladi. Potoka tarkibida RV 37 % yuqori u yaltiroqlikda bo'ladi. Potoka tarkibida uglevoddan tashqari ko'p miqdorda xlorit natriy, azot (0,05–0,25 %) qizil narsalar mavjud.

### **Maltozali potoka ishlab chiqarish**

Maltozali potoka tarkibida eng ko'p miqdorda maltoza mavjud. Karamelli potoka bilan solishtiradigan bo'lsak, karamel potokaga qaraganda yuqori shirin bo'ladi. Qovqoqligi pastroq, uni saqlash va krisstallanishi eng ko'pi bilan 80% miqdorda

### **Maltoza potokasini tarkibi (mass. %)**

Komponent	Marka		
	A	B	V
Glukoza	2,5–7	dan kam 2,5	15–20
Maltoza	39–52	48–52	dan kam 50
Maltotrioza	16–26	12–21	8–16
Oliy yarim saxaidli	balansda		

## KRAMAL POTOKASINI TARKIBI

Ko'rsatkichlari	Patoka			
	Karamelli past shirin	karamel		glukoza yuqori saxirli
		Oliy nav	I nav	
miqdori SV, mass. %, dan ko'p	78,0	78,0	78,0	78,0
miqdori RV da hisoblanganda SV, mass. %	30–34	38–42	34–44	44–60
Kul miqdori SV, mass. %, dan kam	0,4	0,4	0,45	0,55
Kartoshkali	25	25	27	—
Makkajo'xori	12	12	15	—
pH, dan past	4,6	4,6	4,6	—
Karamelli namunani harorati, °C	155	145	140	—
rangi, ml, dan ko'p [42]	—	3,0	6,0	—
Etolon bo'yicha rangi, dan ko'p	—	1	2	—

Maltoza ( $C_{12}N_{22}O_{11}$ ) disaxaridli tiklanadigan bo'lib, vosstanavlivayushim disaxaridom, ikki qoldiqli, qurilishda, D-glukozalar, birikma xolatida  $\alpha$ -1,4-glukozali bog' xosil qiladi.. maltozani ikki formasi mavjud bo'lib, ( $\alpha$  - va  $\beta$  - formada), u atsetal gidroksil tarkibida joylashadi. Maltozani krisstal holatida u suvli ko'rinishda bo'lib  $\beta$  -formada erish harorati 102–103 °C va  $[\alpha]_D$  (+111,7°C) va suvsiz  $\alpha$  -formada esa erish harorati 108° C va  $[\alpha]_D$  (+173°C). Suvli eritmadi maltoza, aralashma tarkibida bir tekis aralashgan bo'ladi.  $[\alpha]_D$  (+130,4°C). Maltoza suvda yaxshi eriydigan, erimaydigan qismi esa dietil efirida erimaydi.

Maltozali potoka uch ko'rinishda bo'ladi, va uning tarkibi RV xisoblashda maltoza tarkibida 65 %, na ko'p mahsulot jigarrang ko'rinishda shirin mazali bo'ladi.

## **IV. EKOLOGIK MASALALAR YECHIMI**

Men loyixalayotgan ob'ektda mexanik ishlov berish vaktida juda kup mikdor dispers changlar ajralib chikadi. Bu shu korxona ishchi xizmatchilarini va shu xudud axolisining salomatligiga salbiy ta'sir kursatadi. Buni inobatga olib men changlarni tozalash metodikasini keltirmokchiman.

Donodor materiallarni yanchish, aralashtirish, uzatish, kuritish jarayonlprida zarrachalarning ulchami 3/70 mkm atrofida bulgan changlar paydo buladi. Texnalogiya jarayolarini tugri amalga oshirish uchun sanoat gazlari va xavo changdan tozalanishi zarur.

Sanoatda ishlab chikarilgan gaz aralashmalarini tozalash uchun kuyidagi usullardan foydalilanildi.

1. Ogorlik kuchi ta'sirida chuktirish.
2. Markazdan kochma elektr va boshka kuchlar maydonida chuktirish.
3. Filtirlash.
4. Gazlarni yuvish.

Gazlarni changdan tozalash uchunchuktirish kameralari, siklonlar, ugormali chang ushlagichlar, skrubberlar, Venturi trubasi, filrlar, rotatsion kurilmalar, elektr filrlar ishlatiladi. Amalda gaz aralashmasidagi mayda zarrachalarni birgina tozalash kurilmalarida butunlay ajratish mumkin emas. Shuning uchun kupincha ikki va kup boskichli tozalash kurilmalari ishlatiladi, ya'ni avval katta zarrachalar chang chuktirish kameralarida, sungra mayda zarrachalar 'lektr filrlarda chuktiriladi. Chang chuktirish kameralari changli gazlarni birlamchi tozalash uchun ishlatiladi. Bunday kurilmalarning tozalash darajasi 40-50% dan ortmaydi. Chang chuktirish kameralarining ulchamlari ancha katta buladi. Changli gaz okimiseparatsion bushlikda sekin xarakat kiladi, kattik zarrachalar esa chang yigadigan septsiyalardan biriga tushadi. Bunday konstruktsiya oddiy tuzilishga egabulsa xam katta joyni egallaydi. Gaz okimining sekin xarakatini ta'minlash uchun separtsion kameraning xajmi ancha katta buladi. Bu rasmlarda gorizontal kamera, kup polkali kamera, tusikli kamera, sim pardali kameralar tasvirlangan.

Inertsion chang ushlagichlarda tozalash darajasini oshirish uchun ogirlik kuchidan tashkari inertsion kuchlardan foydalaniladi. Bunday xolatda kurilmaning ulchami ancha kamayadi. Eng oddiy inertsion chang ushlagichlarning ishlash printsipi kuyidagidan iborat.

Chang okimi yunalishining birdan uzgarish paytida, kattik zarrachalarning zichligi xavo zichligiga nisbatan taxminan 1000 martaga katta bulganligi sababli, zarrachalar uz inertsiyasi bilan oldingi yunalishda xarakatini davom ettirib, gazdan ajralgandan sung, chang yiggichga tushadi, tozalangan gaz okimi esa kurilmadan tashkariga chikib ketadi.Oddiy chuktirish kurilmalarida aralashmalaridagi mayda changlarni ajratish ancha kiyin. Chuktirish kurilmalarining ulchami katta bulgani uchun ular kup joyni egallaydi. Bundan tashkari gazlarni tozalash darjasи ancha kichik. Shuning uchun changli gaz aralashmalarini tozalash uchun sanoatda siklonlar kup ishlatiladi.Siklonlarni kurish yoki xaydashliniyalariga urnatsa buladi. Birok, ayniksa gaz okimining tarkibida obraziv yoki yonuvchan zarrachalar bulsa ventilatorlarning ishlash muddatini uzaytirish uchun siklonlarni kurish liniyasiga, ventilatordan oldin joylashtirish maksadga muvofik buladi.

Boshkacha aytganda chang zarrachalari ventilatorga kirib, uni tezda ishdan chikarishi mumkin. Siklon bilan bunker juda zich kilib urnatilishi kerak, chunki ozgina mikdordagi xavoning sistemaga tortilishi tozalash samaradorligini ancha pasaytiradi.Oddiy chuktirish kurilmalarida gaz aralashmalaridagi mayda changlarni ajratish ancha kiyin.Chuktirish kurilmalarining ulchami katta bulgani uchun ular kup joyni egallaydi.

Uyurmali chang ushlagichlar siklonlarga nisbatan ancha keyinrok taklif etilgan. Bunday kurilmaning uk yunalishida pastki (birlamchi) va yukorigi (ikkilamchi) uyurmali okimlarning bir-biriga karama-karshi xarakati mavjud.

1. Ikkilamchi gaz okimini soplo yordamida kirituvchi.
2. Birlamchi va ikkilamchi gaz okimlarini parrak yordamida kirituvchi.

3. Birlamchi va ikkilamchi gaz okimining tangentsial yunalishida kirituvchikurilmalar. Siklonlarni surish yoki xaydash lirniyalariga urnatsa buladi. birok, ayniksa gaz okimining tarkibiga obraziv yoki yopishuvchan zarrachalar bulsa vintelyatorning muddatini uzaytirish lozim.

Odatda ikkilamchi gazning kurilmaga kirishidagi bosimi va tezligi taxminan siklonlardagi kursatkichlarga juda yakin. Sanoat ishlab chikarishlarida yukorigi va pastki gaz okimlari tangentsial yunalishida kiradigan uyurmali chang ushlagichlardan kulay va arzonga tushadi.

Bundan tashkari kurilmaning tuzilishi sodda va bosimning yukolishi kamrok. Rotatsional yoki dinamik chang tutgichlarda chang zarrachasiga ta'sir kiluvchi markazdan kochma va Koreamis kuchlari ish gildiragi (rotor)ning aylanishi natijasida xosil buladi. Chang tutish ning umumiy konuniyatları uyurmali va rotatsion kurilmalarda deyarli bir xil. Rotatsion chang tutgichning asosiy afzalligi shundan iboratki, uning ishlashi uchun kushimcha tortish – puflash kurilmasi kerak emas. Rotoring aylanish sonini kupaytirish yuli bilan inertsion va markazdan kochma chang tutgichlarga nisbatan, ancha yukori samaradorlikka erishishi mumkin.

Rotatsion kurilmaning asosiy kamchiligi – kup energiya talab kilishidir. Birok chang tutish va ventilatorning vazifalari birga kushib amalga oshirilganligi sababli, rotatsion kurilmalar ancha ixcham tuzilishga ega. Sanoatda ishlatilayotgan rotatsion chang tutgichlar ikki turga bulinadi: spiralsimon kobikli va aylanuvchan barabanli.

Rotatsion chang tutgichlar katoriga maxsus trubina bilan ta'minlangan turbosiklonlar va trubokompressorlar kiradi. Turbina markazidan kochma kuch maydonini xosil kiladi va uni kuchaytiradi. Natijada gazlarni changdan tozalash darajasi kupayadi. Gazlarni yuvish yuli bilan changdan tozalash usulidan foydalilanilda changli okim tomchi yoki plyonka xolatidagi suyuklik bilan kontaktda buladi. Gidrofill xossalil chang suyuklik yuzasiga yopishib, u bilan birga kurilmadan tashkariga chikariladi.

Chang yuvishning kamchiligi ifloslangan okindi suyukliklarning xosil bulishidir. Bunday okindi suvlar tozalashni talab etadi.

Chang yuvuvchi kurilmalarni chang tushishidan tashkari bir vaktning uzida kuyidagi vazivalarni xal kilish maksadida ishlatish mumkin:

- Gazlarni sovutish yoki namlash;
- Chang bilan birgalikda tomchi va tulganlarni tutib kolish;
- Gaz kushimchalarini abgorblash;

Changli gazlar tarkibidagi kattik zarrachalarni elektr maydon ta'sirida chuktirish boshka chuktirish usullariga karaganda kup afzalliklarga ega. Chuktirish kurilmalari siklonlarda, yangi filtrlarda, skrubberlarda ogirlik kuchi va markazdan kochma kuchlar ta'sirida uta mayda zarrachalarni chuktirishi mumkin emas. Elektr chuktirish kurilmasining ishlash printsipi changli gazlarning xususiyati, tarkibi va temperaturasiga boglik.

Temperatura va xavoning molekular ogirligi bilan sistemadan utayotgan tokning mikdori kupayib boradi. chang zarrachalarining kattaligi kamayishi bilan kurilmaning foydali ish koefitsenti kamayadi.

Elektrofiltrarning gidravlik karshiligi juda kichik. Bunday filtrlar eng samarali kurilma xisoblanib, katta xajmdagi changli gazlarni ajratish uchun ishlatiladi.

Elektrofiltrlar elektrodlarning urnatilishiga kura gorizontal va vertikal xolda buladi. Xuddi shuningdek, gaz aralashmasi tarkibidagi zarrachalarning xolatiga kura kuruk va nam elektrofiltrlar bulishi mumkin.

Gaz tozalaydigan kurilmalarni tanlashda kuyidagi asosiy faktorlarga axamiyat berilishi kerak: chang zarrachasining ulchami, uning tozalanishi lozim bulgan gaz tarkibidagi konsentratsiyasi va zarur bugan tozalash darajasi.

Yukori konsentratsiyali gazlar uchun kattik fazalar uchun maxsulot xisoblanganda, tashlashning kuruk usullaridan foydalanish maksadga muvofik buladi. Gazni tozalash darajasiga bulgan talab atmosfera xavosi tozaligining zarur bulgan sanitariya-gigiena normalari bilan yoki texnalogiya uskunalarining ishslash shartlari bilan boglik buladi. Gazlarni tozalash masalan: kompressorlar va

ventilator ish organlari eyilishining oldini olish imkoniyatini beradi, xamda reaktordagi kontakt bulayotgan masalalarini ifloslanishdan saklaydi. Gazni tozalaydigan kurilmalar va ularning materiallarini tanlashda gaz tarkibida namlik va agressiv komponentlarning borligi, ularning mikdori va temperaturasi xisobga olinadi.

Tozalashning tegishli darjasи kurilmaning tipini, konstruktsiyasini va ulchamini tugri tanlash va uni tugri ishlatish orkali erishiladi. Chang ushslashni yaxshilash odatda kurilmaning ulchamini yoki uning ‘nergiya xajmini kupaytirishni talab etadi.

Masalan, engli filtrlar, chuktirish kameralari, elektrofiltrlar gazning tezligi kam bulganda, ya’ni kurilmaning ulchami katta bulganda ancha samarali ishlaydi. Siklonlar katta tezlik bilan ishlaydigan gaz yuvuvchi kurilmalar, zarba berishga asoslangan skrubberlar samarali chang ushslash rejimida ishlaganida katta gidravlik karshilikka ega buladi yoki suyuklikning katta sarfini talab kiladi. Bunda energiya sarfi kupayadi. Aralashma tarkibidagi chang zarrachalari kanchalik kichik bulsa, gazni tozalaydigan kurilmalarni kurish va ularni ishlatishga shunchalik katta mablag talab kilinadi.

## **V. ISHLAB CHIKARISHNI AVTOMATLASHTIRISH VA KOMPYUTERLASH TIZIMIDA NAZORAT KILISH**

### **Modda mikdori va sarfini nazorat kilish.**

Ishlab chiqarilayotgan maxsulot sifati va texnologik jarayonni avtomatik boshqarish samaradorligini oshirish omillaridan biri turli moddalar sarfi va mikdorini anik ulchashdir. Sarf ulchash sistemalarini kullanishi sarflanayotgan energiya eltuvchilarini (suv, gaz, bug, yonilgi) xisobga olish va nazorat kilish buyiga texnik masalalarning xal klinishini soddalashtiradi, jarayonining eng optimal parametrlarini aniklashga imkon beradi. Sarf ulchash uchun ishlatiladigan asboblar sarf ulchagichlar deyiladi. Moddaning berilgan kanal kesimi orkali vakt birligi ichida utgan modda mikdori sarfi deyiladi. Sarf ulchaydigan asboblar oniy sarfni ulchaydi va texnologik rejimlar ishini nazorat kilishga, texnologik jarayonning xar bir onda avtomatik ravishda rostlashga imkon beradi. Moddaning xajmiy sarfi - l/s, m<sup>3</sup>/s, m<sup>3</sup>/soat.

Massa sarfi esa - kg/ s, kg/soat, t/soat da ulchanadi. Modda mikdorini ulchaydigan asboblar xisoblagichlar deyiladi. Xisoblagichlar uzaridan utgan modda mikdorini ulchaydi. Modda mikdori litr, m<sup>3</sup> yoki kg, tonna birliklarida ifodalanadi. Ishlab chikarishda suyuklik, bugning sarf ulchagichlar yordamida ulchanadi:


- ◆ bosim farki uzgaruvchan sarf ulchagichlar
- ◆ bosim farki uzgarmas sarf ulchagichlar
- ◆ uzgaruvchan satxli sarf ulchagichlar
- ◆ indukstion sarf ulchagichlar
- ◆ ultratovush sarf ulchagichlar
- ◆ kalorimetrik sarf ulchagichlar
- ◆ ionli sarf ulchagichlar

Kimyo va ozik-ovkat sanoatida kuplab ishlatiladigan ayrim asboblarni kurib chikamiz.

## Bosimlar farki uzgaruvchan sarf ulchagichlar.

Sarfni bunday usul bilan ulchashda suyuklik utayotgan trubkada kichik diametrali tusik –diafragma yoki saplo urnatishi natijasida xosil buladigan modda statik bosimning uzgarishini ulchashga asoslangan.

1-rasmda kurinib turibdiki tusikni oldi va orkasidan  $\Delta P$  bosimlar farki xosil buladi va  $\Delta P$  modda sarfini ulchoviy bulishi mumkin.



Sarfni son kiymati esa difmonometr ulchagan  $\Delta P$  buyiga aniklanadi. Tusiklar sifatida kullaniladigan diafragma, saplo va venturi saplolari davlat standarti asosida tayyorlanadi. Bunday sarf ulchagichlar sodda, arzon, universal va ishonchlidir.


Bosimlar farki uzgarmas sarf ulchagichlar – ratometrlar laboratoriya va sanoatda keng ishlatiladi. Ishlash prinstipi ulchanayotganda muxit okimining pastdan yukoriga utishida konussimon naycha ichiga joylashgan kalkovichning vertikal siljishiga asoslangan. Ratometrlarda masofaga signal uzatish uchun elektrik va pnevmatik sistemalardan foydalilanadi. Elektr sistema yordamida masofaga signal uzatish uchun muljallangan ratometrning ishlash prinstipi kuyidagicha. Differenstial transformatorning temir uzagi ratometr kalkovichdagi shtok bilan mexanik boglangan. Sarf uzgarishi bilan kalkovich temir uzakni suradi. Natijada transformatorning ikkilamchi chulganimagi elektr yurituvchi kuch xam uzgaradi. Transformator bilan utgazgich orkali ulargan voltmetrning shkalasi sarfini ulchash uchun darajalangan buladi Elektromagnit (indukstion) sarf ulchagichlar. Ishlash prinstipi tashki magnit maydon ta'sirida elektr tokini utkazuvchi suyuklik okimida xosil bulgan EYuK ni ulchashga asoslangan. EYuK ning kiymati, magnit maydoni uzgarmas bulgan kuyidagi tenglama orkali aniklanadi.

$$E = B \cdot D \cdot V$$

Bu erda : V – magnit indukstiya, D – kuvurning ichki diametri, V – okimning urtacha tezligi. Agarda tezlikni xajmiy sarf orkali ifodalasak

$$E = \frac{4B}{\pi D} \cdot Q$$

Bu formuladan EYuK ning kiymati sarfga tugri proporstional ekanligi kelib chikadi. Indukstion sarf ulchagichlar elektr utkazgich kobiliyati yukori bulgan suyukliklarda ishlatiladi. 2-rasmida Indukstion sarf ulchagich sxemasi keltirilgan.



2-расм. Индукцион сарф улчагич.

Xajm xisoblagichlari. Ishlash prinstipi suyuklik okimi muayyan mikdorga (porstiya) bulinib sarflanishi va bu porstiyalar sonini xisoblash yuli bilan sarflanayotgan modda mikdorini aniklashga asoslanadi. Sarflanayotgan porstiyalar soni yigindisi xisoblash mexa-nizmi yordamida aniklanadi. Xajm xisoblagichlari asosan toza suyuklik mikdorini aniklashga mujallangan. Tuzilishiga kura xisoblagichlar ovalsimon, shesternali, rotastion, porshenli va barabanli turlariga bulinadi. Xajm xisoblagichlarni parrakli turi xam mavjud.

### **Moddalarning tarkibini nazorat kilish.**

Texnologik jarayonlarni boshkarishda moddalarni tarkibi va fizik xossalari nazorat kilish talab etiladi. Texnologik jarayon davomida kayta ishlanayotgan maxsulotning tarkibi va fizik xossasi uzgaradi, bu parametrlarni nazorat kilish bevosita texnologik jarayonni borishi tugrisida fikr yuritishga imkon beradi. Moddalarning tarkibi va fizik –kimyoviy xossalari analizatorlar yordamida urganiladi.

## **VI. INSON FAOLIYATINI XAVFSIZLIGI**

Insoniyat rivojlanib borar ekan ishlab chiqarish ham o'z-o'zidan rivojlanishga majburdir. Ishlab chiqarishda inson boshqaruvchi kuchdir. Lekin insonlarning ham imkoniyat darajalari ma'lum bir chegaralarga ega. Mana shu chegaralar buzilsa inson oldida, masalaga bevosita yondashsak esa ishlab chiqarishni boshqaruvchi ishchi oldida katta muammolar vujudga keladi. Fikrimizni to'laroq ifodalash uchun biror bir ishlab chiqarish korxonasini misol qilishimiz mumkin.

Ishchi har qancha aqliy yoki jismoniy kuchli, idrokga ega bo'lmasin agarda ushbu kuchni, idrokni avaylab foydalanmas ekan bu kuch tanazzulga mubtalo bo'ladi. Ya'ni inson asta-sekin zaiflashib boradi va natijada yaroqsiz holatga kelishi mumkin. Buning oldini olish ya'ni insonning ishlab chiqarishdagi boshqaruvchilik qobiliyatini uzluksizligini saqlab qolish uchun unga qulay ish sharoitlari yaratilishi lozim. Ular quyidagilar

- Normal sanitar gigiena sharoitini ta'minlash;
- Qo'l kuchi bilan bajariladigan mehnatni minimallashtirish;
- Aqliy mehnat rolini oshirish;
- Jarohatlanish va turli shikastlanishlarini oldini olish;
- Charchash to'liqish, qalb kasalliklarini keltirib chiqaruvchi omillarni bartaraf etish;
- O'z vaqtida va to'laqonli dam olishni, ya'ni mehnat qobiliyatini tanlash sharoitlarini yaratish va xokazolar

Bizning meva va sabzavotlarni qayta ishslash zavodimiz sanitariya bo'yicha 5-sinfga kiradi. Chunki ishlab chiqarish korxonasi bo'lganligi sababli, fizikaviy faktor bu xarakatlanuvchi mashina va mehanizmlar yuqori changlanish va ishchi zona havosini zararli moddalar aholi salomatligi uchun ta'siri bo'lmaydigan joyga joylanishi.

Potaka ishlab chiqarish korxonasi ximoya zonasi 50 metrdan kam bo'lmasligi kerak. Ya'ni, N- 245 -71 SNIP - 2 - 01 - 03 - 94 ga asosan amal qilinadi.

Kasallik, zaharlanish sodir bo'lmasligi uchun sanitariya normasida belgilangan yo'l qo'yilishi mumkin bo'lgan oxirgi darajadan oshib ketmasligi kerak.

Bu mahsulotlarni ishlab chiqarishda meva va sabzavotlarni ahamiyati katta. Shuning uchun meva va sabzavotlar zaharli moddalardan, issiqlik ta'sirida, ezilgan bo'lishi kerak emas. Asosan meva va sabzavotlarni laboratoriyada tekshirishda suyultirilgan kislotadan foydalaniladi. Bu modda mahsulotga mahsulotga qo'shilib ketmasligi kerak. Buni ishlatish faqat laboratoriya xonasida olib borilishi kerak.

Assortimentlar potaka ishlab chiqarishda xom-ashyo va yordamchi materiallardan foydalaniladi.

Bu xom-ashyo va materiallar sifati belgilangan tartibda bo'lishi kerak. zaharli, inson organizmga salbiy ta'sir ko'rsatadigan moddalar qo'shilmasligi kerak.

Viloyatida joylashganligi sababli bo'layotgan shamol korxonadan chiqayotgan gaz, changlarni aholidan zararsiz tomonga tashlaydi. Sanoat korxonalari SNIP 2 -0902-85, SNIP 2 , 0 1.03-85 larga asosan shamol yo'nalishi va havo oqimi tezligi hisobga olgan holda quriladi. Korxona qurilayotgan yerdan aholi tomonga har qanday zararli ta'sirlar (shovqin, gaz, oqava suv) etkazilmasligi kerak, ximoya vositalari bilan ta'minlanishi lozim.

Patoka ishlab chiqarishda makkajo`xoriga ishlov berishda inspeksiya, sartirovka, maydalash va undan kraxmalni ajratib olish texnogik jarayonlar 2 xil usulda mexanizatsiyalashtirilgan va avtomatlashtirilgan bo'lishi mumkin. Korxonada davriy usulda 2 smenada ish tashkil etiladi.

Korxonada ko'pincha mahsulot ishlab chiqarish uskunalarini avtomatlashtirilgan. Bu esa insonni og'ir mehnatdan, charchashdan, zararli moddalar bilan to'qnashishdan holos etadi.

Ishchilarni mehnatini yengillashtirish maqsadida uzoqdan turib boshqariladigan elektrik va kompleks uskunalar qo'llanilgan, bu texnologik jarayonni normal holatini ushlab turadigan parametrlar yordamida aniqlanadi, zamonaviy texnogiylar ish rejimi bir joyda turib kompyuterlashtirilgan boshqarish punktda nazoratdan o'tkazib boriladi. Korxonada qo'llanilayotgan uskunalarini bosim ostida ishlaydigan kompressor separator va sterilizatorlarni xavfsizligi

ta'minlash maqsadida ular avtomatlashtirilgan. Bosim ostida ishlovchi kompressor, avtoklav qadoqlovchi uskunalarni kichikroq xajmdagi apparatlardan turib boshqariladi. Uskunalarni germetikligi ta'minlangan. Korxonada apparat uskuna, qurilmalarni tuzatish, sozlash uchun narvon, mahsus maydoncha, ko'tarma kran va boshqa zarur bo'lган ta'mirlash vositalari bilan ta'minlangan bo'lishi kerak.

Korxona ichida ishlayotgan senarator, pasterizator, kompressor va nasoslar o'zidan shovqin va tebranish hosil qiladi.

Sexni ichida shovqin va tebranishni kamaytirish maqsadida kompressorlar va shovqin, tebranishni hosil qiladigan uskunalar alohida xonalarga joylashtirilgan. Sex ichidagilari esa shovqinni kamaytirish maqsadida shovqin kamaytirish shkaflar bilan o'ralgan bo`lishi kerak. Tebranishdan himoya qilish uchun esa uskunalarini separator va pasterizatorlarni tagiga rezina quyilgan, bu rezina asos yuzasini tebranish yutuvchi rezina hisoblanadi. Korxonadagi sex ichida shovqin 100 db bo'lishi kerak 100 db dan oshib ketsa, ishchilarga zarar yetkaziladi.

Patoka ishlab chiqarish korxona ichidagi sexlarni yoritish juda yaxshi yo'lga qo'yilgan. Bunda asosan tabiiy va yoritish tizimlaridan foydalanilgan. Bu sexlar sun'iy yoritilgan lampalari bilan jihozlangan. Asosiy sex esa sun'iy chiroqlar va katta-katta oynali derazalar bilan jihozlangan. Bu yerda yorug'lik juda yetarli va qurilish qoida va normalariga SNIP 2-4-79 qabul qilingan. Korxonada mehnat sharoitini yaxshilash, ish suratini oshirish, ishchilarni xavfsizligini ta'minlash maqsadida korxonada shamollatish va isitish moslamalari to'g'ri qo'llaniladi. Korxonada ish boshlanishdan 10-15 minut oldin shamollatish qurilmalari ishga tushiriladi. Bu esa sex ichidagi havoni tozalashiga va sanitariya - gigiena talablariga to'liq rioya qilishda muhim ahamiyat kasb etadi. Korxonada ishchi xizmatchilar doimo bo'ladijan ishlab chiqarish binolarini ma'lum haroratda ushlab turish uchun isitish qurilmalari o'rnatilgan. Bu isitish qurilmalari markazlashgan holda bo'lib, par va issiq suv bilan amalga oshiriladi. Korxonani shamollatish va isitish SanPIN 0058-96 ga asosan olib boriladi va loyixalashtirilgan. Korxonada ishchilarni elektr tokidan shikastlanishning oldini olish, ximoyalash maqsadida dastgohlarda ximoya vositalardan foydalanish kerak.

Ishchilar va mahsus vositalar va anjomlar bilan ta'minlangan bo'lishi kerak. elektr tokidan shikastlanishning oldini olish va ogohlantirishda sehda yerga ulanuvchi simlar joylashtirilgan bo'lishi kerak. Bu simlar yerga yakka holda diametri 8-10 mm bo'lgan yerga o'lchovchi sim orqali zax va pastroq joyga qoqilgan, diametri 50 mm bo'lgan qovur uzunligi 3 m bo'lgan burchakli po'lat vosita bilan bog'langan bo'lishi kerak. Ishchilarni elektr toki yordamida shikastlanishdan himoya qilish uchun ishlab chiqarish sharoitlarida xavfsiz hisoblanadi. Bu esa ishchilarni yanada ish suratini oshirishga yordam beradi.

Oziq-ovqat ishlab chiqarish sanoati korxonalarida asosiy va qo'shimcha texnologik jarayonlarni amalga oshiruvchi ishchilar shaxsiy himoya vositalaridan foydalaniladilar. Kraxmalni gidrolizlashda qayta ishlovchi zavodlarda ham ishlab chiqarish jarayonida qatnashuvchi ishchilar oq xalat, rezina etik, qo'lqop va qalpoq kiyadilar. Korxonada yana bajariladigan ishning turiga qarab mahsus kostyum va qo'lqop dislektrik poyondoz, qo'l ushlagich shlaklar ham ishlatiladi, korxonada kam zaxdan himoyalanishda mahsus oyoq kiyimlari ham kiyiladi.

